

JAHON ADABIYOTINING YIRIK VAKILI BO'LGAN ADIB NASRINING GLOBALLASHUVI

G.D.Isoqjonova

Farg 'ona davlat universiteti

Ingliz tili va adabiyoti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Maqolada qirg'iz xalqining dunyoga mashhur adibi Chingiz Aytmatov asarlarining dunyo bo'ylab tarqalishi va ko'plab kitobxonlar orasida katta bir qiziqish bilan mutolaa qilinishi yoritilgan.*

Аннотация. *В статье рассказывается о распространении произведений всемирно известного кыргызского писателя Чингиза Айтматова по всему миру и о том, что они с большим интересом читаются среди многих читателей.*

Annotation. *The article describes the works of the globally renowned Kyrgyz writer Chingiz Aitmatov and the works that have gained popularity worldwide and are being widely read and appreciated by a diverse readers.*

Tayanch iboralar: *Aytmatov maktabi, globallashuv, nasr, qissa, jo'shqin ijodkor, turkiy xalqlar, jahon adabiyoti,*

Ключевые слова: *Школа Айтматова, глобализация, проза, страстный творец, тюркские народы, мировая литература, новелла.*

Key words: *Aitmatov's school, globalization, prose, passionate creator, Turkic peoples, world literature, short story.*

Chingiz Aytmatov... Bu ism zamonamiz kitobxonlariga juda tanish, sevimli va qadrlil. Adabiyot maydoniga 1950- yillarning boshida kirib kelgan va millionlab kitobxonlarning qalbiga tez yo'l topa olgan, g'oyat go'zal va sermazmun asarlaru bilan ularni ohangrabodek o'ziga tortib, sehrab olgan, Lui Aragon, Nikolay Tixinov, Eduardas Mejelaytes, Muxtor Avezov, Rasul Hamzatov kabi jahonga mashhur so'z sehragarlarining tahsiniga sazovor bo'lgan buyuk iste'dod sohiblaridan biri Chingiz Aytmatovdir. Tinimsiz mehnat, izchil ijodiy izlanish Chingiz Aytmatovni nafaqat turkiy xalqlar, balki butun jahon xalqlari kitobxonlarining ardoqli yozuvchisiga aylantirdi.

Jo'shqin ijodkor Chingiz Aytmatov dastlab Rus maktabida, keyinchalik qirg'iz maktabida o'qidi. 1942- yil 14 yoshida Shakar qishloq kengashi kotibi, soliq yig'uvchi, so'ng traktorhilar brigadasining hisobchisi bo'lib ishlaydi. 1948- yili



Jambuldagi Zooveterinariya texnikumini, 1953- yili Qirg'iziston Qishloq xo'jalik institutini tamomlagach, tajriba fermasining zootexnigi bo'lib ish boshlaydi.

Chingiz Aytmatov 1980-1990- yillarda " Иностранная литература" jurnaliga bosh muharrirlik qildi. 1990- yildan sobiq SSSRning, so'ngra Rossiya Federatsiyasining, 1991- yildan esa Qirg'iziston Respublikasining Lyuksemburg va Belgiyadagi elchisi lavozimida ishladi. "Issiqko'l forumi" xalqaro tinchlik harakatida muhim ijtimoiy masalarni hal etishda samarali ta'sir o'tkazib keldi. Yozuvchi 1995- yildan Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasi Prezidenti sifatida ham samarali ish olib borgan.

Chingiz Aytmatov qirg'iz adabiyotining eng yaxshi an'alarini davom ettirib va boyitib, o'tmish va zamonaviy adabiyotning eng yaxshi namunalarini sinchiklab o'rgandi. Aytmatov asarlari ko'pincha sevgi, yo'qotish va insoniy holatlar kabi universal mavzularni o'rganadi va bu turli madaniyatlarga mansub kitobxonlar uchun qulay tushunish shart sharoitini beradi . Adib asarlarining globallashuviga xizmat qilgan asosiy omillar shulardan iboratki, ularda umumjahon insoniy kechinmalariga to'xtalish, qirg'iz hayoti va an'alarining mazmun-mohiyatini aks ettira olish kabi xususiyatlar aks etgan. Shuning bilan birga, rus va jahon adabiyotining eng yaxshi an'alarini qunt bilan o'rganish, o'zlashtirish natijasida jahon adabiyotida o'ziga xos Aytmatov maktabi" ni yaratdi. Umumiy qilib aytganda, Chingiz Aytmatov asarlari Markaziy Osiyo adabiyotining globallashuvida, butun dunyo kitobxonlarini Qirg'izistonning boy madaniy merosi va hikoyachilik an'analari bilan tanishuvida muhim rol o'ynadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, Ch. Aytmatov ayniqsa, rus klassiklarining boy an'alarini chuqur o'zlashtirish asosida tarbiyalanadi. Buni adibning o'zi mamnuniyat bilan e'tirof etadi.

Turkiy xalqlarning iftixori bo'lmish Chingiz Aytmatovning asarlari dunyodagi 191 tilga tarjima qilingan va 70 million nusxada chop etilgan jahon adabiyotining yorqin namoyondasi edi. Adib nomini ilk bor jahonga mashhur qilgan "Jamila" povestining o'zi esa 40 dan ortiq yillarda tarjima qilingan. Adibning "Jamila" qissasi unga olamshumul shuhrat keltirdi, uning nomini jahonga tanitdi. Qirg'iz adabiyoti o'zining qisqa tarixi davomida hali bunday katta yutuqqa erishmagan edi. Bu ajoyib lirik qissada go'zallik va ozodlik uchun, yangicha hayit uchun bel bog'lagan yoshlarning jo'shqin hayoti, mehnati, pok sevgisi tarannum etildi. Bundan tashqari, asarni ruschadan fransuz yozuvchisi Lui Aragon "Jahondagi eng go'zal sevgi qissasi" nomli kattagina maqolasida qissani realizmning noyob asari sifatida ko'kka ko'tarib, Aytmatov maktabiga shunday baho bergan edi:

"Viyon, Gyugo va Bodlerlar maskani bo'lgan Parijda, qirollar va inqiloblar maskani bo'lgan Parijda, har bir toshi biror tarix yoki afsonadan shahodat beradigan



ko'p asrli rassomlar maskani Parijda, - degan edi u, - boshidan ko'p savdolarni kechirgan, ko'p narsalarni ko'rgan va bilgan shu Parijda "Jamila" ni o'qidim-u, nogahon "Verter" ham, "Beronika" ham, "Antoniy va Kleopatra" ham, "Manon Lesko" ham, "Sevgi tarbiyasi" ham, "Dominika" ham - hamma- hammasi ko'zimga ilinmay qoldi... Chunki men jahonda eng go'zal sevgi qissasi - "Jamila"ni o'qidim". [1;10]

Ma'lumki, san'at asarlarining kuchini, qimmatini haqqoniy belgilaydigan mezonlardan biri keng kitobxonlar ommasidir. " Agar sening asaring kitobxonlarni hayajonlantirsa, bu - baxtdir", - deydi adib Chingiz Aytmatov. Buyuk iste'dod sohibi Chingiz Aytmatovning o'zi shunday katta baxtga musharraf bo'ladi va jahon adabiyotining yirik siymosi bo'lib yanildi. Endilikda XX asrning ikkinchi yarmi adabiyotida Aytmatov maktabida saboq olmagan, uning ijodidan hayratlanmaydigan yozuvchilar topilmasa kerak.

Bundan tashqari, shuni ham ta'kidlab o'tishimiz kerakki, yozuvchining "Sarvqomat dilbarim", "Bo'tako'z", "Birinchi muallim", " "Jamila", "Alvido, ey Gulsari" kabilar o'zbek va chet el teatrlarida sahnalashtirilgan.

Shu jumladan, "Oq kema" qissasi adibning ijodida ajoyib bir voqea, badiiy bir kashfiyot bo'ldi. Boshqa so'z bilan aytganda, go'yaviy va badiiy teran bo'lgan asar jahon adabiyotida yaratilgan mashhur asarlar qatoridan munosib o'rin oldi hamda asarda ko'tarilgan hayotiy dolzarb masalalar o'zining realistik tasviri bilan kishini g'oyatda hayajonlantirdi.

Yuqoridagi fikr - mulohazalar va ta'kidlab o'tilgan durdona asarlar Chingiz Aytmatov maktabining naqadar purhikmat, serjilo, bir so'z bilan aytganda, badiiy yuksakligidan daral berar ekan, bu maktab uning vafotidan keyin ham biz kelajak avlodalar uchun ming yillar davomida xizmat qilishidan bashorat etadi.

Qirg'iz xalqining mashhur farzandi, nodir asarlar yaratgan adib Chingiz Aytmatovning butun dunyo bo'ylab globallashishga ulgurgan "Jamila", "Oq kema" qissalarini o'qir ekanman, naqadar jonli, jozibali va sodda tilda yozilganligini, yorqin iste'dod sohibiga qoyil qolmay iloj yo'qligini, chin yurakdan e'tirof etaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq nashriyoti. – 2009. – 6-7-8-17-24-bet.
2. Yo'ldashev Q, Qodirov V, Yo'ldashbekov J. Adabiyot 9-sinf. Darslik. –T.: O'zbekiston. – 2019. - 329- b.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti. - 2014. 166 b.



4. www.ziyo.uz.com kutubxonasi.

